

Qog'ozdag "laboratoriya"

Ta'lrim sohasini rivojlantirish, oliy ta'limgan chuqurlashtirish, shaffoflik, yangiliklar joriy qilish, deya bong uramiz-u bilganimizdan qolmaymiz. Ta'limgan ishlmas ekanmiz, jamiyatni o'zgartira olmaymiz. Zero, fikrlar o'zgarsa, qarashlar o'zgaradi.

2-bet

Imkonsizlikni "sindirib"

yoxud maxsus maktab-internat
o'qituvchisi loyihibariga kim e'tibor qaratadi?

Sulton o'zi yaratgan doskani ommalashtirish uchun poytaxtgacha bordi. Afsus, uni tushunadigan, to'g'irog'i ishining ahamiyatini idrok eta oladigan odamni topolmadi.

5-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 9-iyun, chorshanba № 23 (9348)


Xalq ziyolilari gazetasi

Murojaatlarimni
"yopib yuboruvchi" tushuntirish xati
yozib berishimni so'rashdi

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

Odam borki,
odamlarning
naqshidir

14-bet



O'quv yili nihoyasiga yetayotganda o'quvchidan pul yig'mang, ota-onadan pul so'ramang, deb ming marta ta'kidlanadi. Hatto kafolat xatiyam yozdirib olinadi. Aslida maktab ta'miri mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklanishi yoki ota-onalar homiyligi asosida qilinishi kerak! Ammo unisiyam, bunisiyam bosh qotirma, dodingni kimga aytasani? Agar o'quvchidan ta'mirga deb pul olsang, tarixning qora sahifalarida qolib, umring faqat tushuntirish xati yozish bilan o'tadi. Xullas, boshingni ko'tarolmaydigan qilib qo'yadilar. Axir, o'qituvchi topgan oyligini maktabga tashlab ketolmaydi-ku! Qachon ustozlarning nufuzi oshadi? Ota-onalarda mas'uliyat hissi qachon kuchaytilrildi?

Sarvinoz SUNNATOVA

O'qituvchi ahli mehnat ta'tiliga faqat qog'ozda chiqadi xolos. Yozning chillasida ham kuni maktabda o'tadi. Oldinlari yozi bilan g'zo chekankasiaga chiqardik. Hech nima deyolmasdik. Bir gal qishlog'imga ketib qoldim. Ishdan haydasda haydar deb ta'til tugagach kelsam, dars soatini kam beramiz, sen yozi bilan yordam bermagansan deyishgandi. Shu voqealar yodimga tushdi. Siyosat o'zgargani bilan rahbarlarimiz fikri eskichada...

Shuhrat QARSHIYEV

Sevimli TVning "O'zim" ko'rsatuvida geografiya o'qituvchisi, g'azalkentlik Gulizahro ustozning ibratlari hayot yo'li yoritilibdi. Juda mazmunli, saviyali ko'rsatuv bo'libdi. Bu hamma o'qituvchilarga, ayniqsa, yoshlarga mahorat darsi bo'ldi, desam adashmayman. 1-oktabrni kutmasdan ham shunday ko'rsatuvlar bersa bo'lar ekan-ku! Boshqa kanallarda o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq ko'rsatuvlar ko'paysa, muallimlar mavqeysi bir pog'ona yuqorilagan bo'lar edi.

Gulchehra ASHUROVA

O'ZBEKISTON KINEMATOGRAFIYA AGENTLIGI
"KO'ZGU" FILM

MAKTAB HAYOTIM

Aa
Bb
Dd



Maktab haqida ham film olsa bo'larkan-ku!

8-9-betlar

Mulohaza

O'quvchilar emas, kitoblar "chalasavod"!

Sinf rahbarimiz fizika fanidan oliy toifali o'qituvchi edi. Darsni ham, o'quvchilar bilan til topishishni ham qoyillatardi. Xullas, menga o'qituvchimizning doskaga chiroyl va tartib bilan yozishidan tortib, masalalarni og'zaki tuza olishigacha yoqardi. Faqat bitta narsani – ismimni xato yozishini yoqtirmasdim. Har chorak yakunlanganida otanalar yig'ilishi bo'lar, unda farzandlari yaxshi o'qiganlarga tashakkurnoma topshirilardi.

Ota-onamming ham ular qatorida bo'lishi esa meni g'oyat mammun etardi. Yig'ilishga ko'proq onam borardi. Majlis darsdan keyin bo'lganligi uchun o'quvchilarga javob berib yuborishardi. Onamming kelishimi intizorlik bilan kurdim va qo'lidagi olib kelgan tashakkurnomani faxr bilan ichimda o'qirdim: "Hurmatli Alisher Jumaboyev! Farzandingiz Musurmonova Holidayning ushbu chorakni a'lo baholarga yakunlaganligi, namunalni xulqi va jamoat ishlaridagi faoliigi uchun sizga 87-maktab ma'muriyati ushbu tashakkurnomani topshiridi".

Ha, ba'zida ismimni ana shunday xato yozishlari uchrab turardi. Lekin men bundan xafa bo'lmadsim. Chunki o'qituvchimizning fizik ekanligini, fiziklar esa imlo qoidalariga e'tibor bermasliklarini yaxshi bilardim-da.

Gohida ba'zi so'zlarning qanday yozilishi ustidan dugonam bilan bahslashib qolardik. Va bu so'zlarning yozilishimi darsliklardan qidirildik. Lekin, afsuski, darsliklar ham xatolardan xoli emasdi (Bunga hamma allaqachon ko'nikib ham qolgandi). O'shanda faqat imlo lug'ati orqaligina kim g'olib bo'lganligini aniqlardik.

Bir kuni maktabimizga yangi kitoblar keldi. Ularning orasidan O'lmas Umarbekovning mashhur "Odaman bo'lish qiyim" romanini olib o'qidim. Asar sujeti, qahronmlar taqdiri, yozuvchining so'z qo'llash mahorati meni o'ziga jalb etar, lekin ba'zi so'zlarning imloviy jihatdan xato yozilganligi hafsalamni pir qilardi (dastlab bu xatoliklarga e'tibor bermaslikka harakat qildim. Negaki, darsliklari xatoliklarga ko'z yumib o'rgangan edik-da). Kitob chop etilgan nashriyotga

qaradim: "YOSHLAR NASHRIYOT UYI, TOSHKENT-2018". Taajjubim yanada ortdi. Asarning boshidan oxiriga qadar "X-chuqur til orqa undoshi" va "H-bo'g'iz undoshi" o'rtafigi farqlarning e'tiborga olimmaganligidan kelib chiqqan imloviy xatolar. Mana ayrim namunalar:

*Birov hursand, birov hafa (183-bet); *Xo'p, xayr. Svetik uuda yolg'iz qolgan. Hayr (184-bet);

*Gulchehra endi mendan hafa bo'limasa ham bo'ladi (185-bet);

*Tanlovda bizning studentimiz g'o-lib chiqqanligidan men niyojatda hursand (190-bet) va hokazo...

Hozir keltirmoqchi bo'lgan misolimdag'i xatoliklar esa so'zlarning ma'no farqlash vazifasining buzilishiga olib kelgan: Qosimjon odamlar orasida boshini ham qilib turgan Samadni ko'rib uning yoniga bordi (201-bet).

Xam qilmoq – boshini egib, yerga qarab turish. Ham – yuklama; yordamchi so'z turkumi. So'z yoki gaplarga qo'shimcha ma'no yuklash uchun xizmat qiladi.

Gulchehraning o'limidan ruhiy iztirobga tushgan Samadning ahvoli hatto uning boshini tik tuta olmaslik darajasiga yetganidan ham bilinadi. Ammo

ko'rib turganizingdek, yuqoridaq xatalik yozuvchi ko'zlagan mazmundan yiroqlashish, kutilgan ma'nuning to'g'ri anglashilmasligiga olib kelgan.

Axir nega badiylarida bunday xatolarga yo'lli qo'yilyapti? Bu asar muallifi va tilimizga bo'lgan humatsizlik emasmi? Qachongacha bunday xatoliklarga panja ortidan qaraymiz?

Ona tili o'qituvchimiz bizga so'zlarini o'rini qo'llash va imloviy jihatdan to'g'ri yozish o'z xalqimizga, tilimizga, Vatanimizga bo'lgan muhabbatni hamda hurmatni ko'rsatadi, deya uqtirar edi. Haqiqatan, o'z ona tilini sevuvchi har bir inson joriy etilgan imlo qoidalariga amal qilishi darkor. Bu ayni paytda shaxsning savodxonlik darajasini ham belgilab beradi.

Kelajakda yana kim bilandir bahslashib qolib biror so'zning qanday yozilishini isbotlamoqchi bo'lsam faqat imlo lug'atigagina emas, respublikamiz hududida chop etilayotgan barcha kitoblarga tayana olishni istar edim. Negaki, har bitta kitob, har bitta so'z ona tilimiz va millatimizning bebabu xazinasi-ku. Bu xazinani asrash esa siz bilan bizga bo'liq...

Xolida MUSURMONOVA,
O'ZJOKU talabasi

Xalq ta'limi vaziriga ochiq xat

Kambag'alni tuyaning ustidayam it qopar, degan maqolimiz bor. Biz maktablarimizda nemis tili o'qitilishini saqlab qolishga urinayotgan bo'lsak-da, davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan ham mosuvo bo'lyapmiz.

Fanimiz — nemis tili, darsligimiz — inglizcha!

O'quvchilar ijara pullarini berishlariga qaramasdan nemis tili darsliklari yetib kelmaydi yoki o'rniga ingliz tili darsliklari keladi. Bunga kim javobg'ar! Ustozlar eski darsliklardan nusxa olib foydalanyotganiga ham guvohmiz. Ularning bu fidoyiligidan o'zimiz bayon etmasak kim bilib yotibdi? Ayrim maktablarda nemis tili darsliklari turibdi, lekin sinflarda ingliz tili o'qitilmoqda! Metodika, audio disklari bilan bog'liq muammomizni aysak, turgan-bitganining muammo ekan, deyishingiz tavay!

10-11-sinf darsliklari nashr etilganiga 2 yil bo'lishiga qaramasdan audio, metodikasidan darak yo'q. Mualliflar ham jo'yali javob berishishmaydi. Germanianying "Klett", "Hueber" nashriyoti kitoblaridan foydalaniшимизга rasman ruxsat yo'q! Bingga bu masalada bir qy wholemasanigiz, ahvolimiz shunday rivojlangan axborot olamida biroz tang, maqbul yechim kutamiz!

Vazirlar Mahkamasi huzurida xorijiy tili o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etiladi...

Mana bunday qaror loyihibaridan xabarligiz bor, hududlarda allaqachon bu borada

amaliy ishlar, tadbirlar bo'lib o'tyapti. Fanimiz darsliklарини талаб qilyapmiz-u, quyidagi savollarga hali aniq javob topolmadik:

Xorijiy tillar deganda qaysi tillarni tushunib targ'ib qilaylik? Yuritimidagi nemis va fransuz tili fani o'qituvchilar bu qarorlarining amalga oshishiga hissa qo'sha oladimi?

Maktablarda cheklowlarga uchrashimiz fojea emas, qalovini topgan o'rmini topib ketaveradi. Lekin aksar yoshlarimiz 18-20 yoshdan nemis tili imkoniyatlaridan xabardor bo'lib, nemis tilini o'rganishga kirishmoqda. Bu ularning ham moliyaviy (intensiv kurslar qimmatroq), ham aqliy qiyinchiliklarga uchrashiga sabab bo'lyapti. Nemis tili fundamental bilimning bo'limasi, bunday bilimdonni qabul qila olmaydi, juda injiq til!

Bizni o'yalamasangiz ham yosh kadrlarimiz taqdiringa befarq emassiz degan xolisniyatlida bir guruh nemis tili fani o'qituvchilarini nomidan

Marhabo SATTOROVA,
Nurota tumanidagi
14-maktab o'qituvchisi

Muammo

Qog'ozdag'i "laboratoriya"

Pandemiya sharoitida ta'lim muassasalarini muayyan muddat masofaviy tarzda faoliyat yuritdi. Ayni paytda oliy o'quv yurti talabalari yil davomida o'zlashtirgan fanlari yuzasidan laboratoriya, kurs ishi hamda mustaqil ishlar topshirishi kerak. Karantin "sharofati" bilan ko'pchilik talabalar uyda.

Lekin talabalar va ularning domlalariga tan bermoq kerakki, laboratoriya ishlari "ko'ngildagidek" topshirilmoxda. Ya'ni, qog'ozdag'i "laboratoriya". Talabalar turli xil kimyoiy elementlar, moddalar, preparat-u aralashmalar, fizik hodisalar bilan qog'ozda "ijod qilish" moqda va bu ish ular uchun oditi holga aylangan.

Bularning hammasi maynavozchilikdan boshqa narsa emasligini fan doktori, professorlar ham, ularning bo'lajak izdoshlari – talabalar ham yaxshi anglashadi. Ammo nachora, hech kim lom-mim demaydi, aksincha internetdan olingan ma'lumotlarni hafsalama bilan oqqa ko'chirib "bahol" olayotgan talabalar uchun bu har doimgi "mashg'ulot" ga aylanib ulgurgan.

Maktablarda ham bu jarayon xuddi shu tarzda. Aksariyatida laboratoriya xonalari yo'q, xona bo'lsa, jihoz yo'q, u ham topilsa, "Laboratoriya o'tamiz" deya jon kuydiradigan o'qituvchi yo'q...

Bugungi kun talabi — tabbiy va aniq fanlarni puxta egallash. Agar bizda sharoit va imkoniyat bo'limas ekan, rivojlanishdan orqada qog'ozlar bilan yashab yuraveramiz. Ta'lim sohasini rivojlantirish, oliy ta'limni chuqurlashirish, shaffoflik, yangiliklar joriy qilish, deya bong uramiz-u, bilganimizdan qolmaymiz. Ta'limni isloq qilmas ekanmiz, jamiyatni o'zgartira olmaymiz. Zero, fikrlar o'zgarsa, qarashlar o'zgaradi.

Qog'ozdag'i "laboratoriyalari" muammosiga albatta yechim topilishi kerak. Bu borada men talabaning mustaqil o'zi laboratoriya tajribani amalga oshirishi, mavzu bo'yicha laboratoriya ishlari sharoitdan kelib chiqib, xavfsizlik qoidalariga roya qilgan holda videoga olib, ustozlariga jo'natishini yoqloyaman. Busiz hech qanday natijaga erisha olmaymiz. Ayniqsa, oliy ta'limda ham qog'ozbozlik davom etaversa, qog'ozlarda yashaydigan davlatga aylanib qolishimizga shak-shubha yo'q!

Laylo OLIMOVA,
O'ZJOKU talabasi

Og'riq

Tahririyatdan: *Gazetamizga respublikamizning turli hududlaridan shikoyat xatlari, tanqidiy maqlolar keladi. Shuni ta'kidlash o'rinniki, so'z erkinligiga pedagoglarimiz ham anchu o'rganib qolishdi. Ba'zan maqola mualliflarining gazetadagi chiqishidan so'ng "muammo yechimini topdi", degan xushxabar eshitamiz, ammo ba'zida muammo qolib, uni kuyunchaklik bilan ko'tarib, jamoatchilik hukmiga havola etgan muallif bilan "shug'ullanish" boshlab yuboriladi. O'z hududidagi muammoni yozgan odam salkam "xoin, nonko'r"ga aylanadi. "Butun respublikaga tumanimizni sharmanda qildi, shuni ichkarda hal qilsak bo'lardi-ku" qabilidagi malomatlar muallif boshiga yog'diriladi. Uning ishidan kamchilik qidirish, bosim o'tkazish yo'liga o'tiladi. Ba'zan esa bir muassasadagi moddiy-iqtisodiy muammo-*

Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak.

Shavkat MIRZIYOYEV

lar rahbarni ishdan bo'shatish bilan "hal qilinadi".

Murojaatlarni ko'rib chiqish va ularning yechimini amalgalashish mehanizmi to'g'ri va mukammal yo'iga qo'yilishi ham so'z erkinligi va inson huquqlari ta'minlanishiga yo'l ochadi.

Qamashi tumanidagi 10-maktab o'qituvchisi Rahmatilla Mengirov ham o'zi faoliyat yuritayotgan maktabning muammolari, maktab binosining ta'mortalab, nochor ahvolda ekanligi yuzasidan bir necha yuqori tashkilotlarga murojaat bilan chiqqan. "Yuqori"ga yo'llagan bu murojaatlari ortidan "quyi"da nimalar sodir bo'lgani haqida esa uning maqolasini o'qib, o'zingiz xulosa qiling.

Murojaatlarimni "yopib yuboruvchi" tushuntirish xati yozib berishimni so'rashdi

Biz qonunlar ustuvor bo'lgan, huquqiy-demokratik davlatda yashayapmiz. Har holda Prezidentimiz tomonidan aholining davlat idoralarini, yuqori tashkilotlarga qilayotgan murojaatlariga rahbarlar qanday munosabatda bo'lishi kerakligi yuzasidan qat'iy fikrlari yuksak minbarlarda qayta-qayta jaranglayotgani rost. Demak, murojaatlarga adolatli munosabatda bo'lish shart. Ammo amalda qanday ishlar yuz beryapti?

Ancha yillardan buyon Qamashi tumanidagi 10-maktabda o'qituvchi bo'lib ishlayman. 2019-yili maktabimizdagi mavjud moddiy-teknik muammolar yuzasidan bir nechta yuqori tashkilotlarga, jumladan, Xalq ta'limi vazirligiga ikki marta, "Xalq so'zi", "Ma'rifat" gazetalariga murojaat qildim. "Xalq so'zi" gazetasiga jo'natilgan murojaatim Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasiga va Qashqadaryo viloyati hokimligiga jo'natilgani ma'lum qilindi, ammo natijadan dom-darak yo'q.

Yuqori tashkilotlarga yo'llagan murojaatlarimning dom-daraksiz ketgani yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oly Majlis Senati raisiga, Oly Majlis Qonunchilik palatasi spikeriga, "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharririga murojaat qildim. Ulardan murojaatimni ko'rib chiqish va yechim topish vazifasi asli ustidan shikoyat qilinayotgan Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasiga zimmasiga yuklatilmasligini so'radim.

Shundan so'ng murojaatlarim Xalq ta'limi vazirligiga jo'natilgani ma'lum qilindi. Oradan bir qancha vaqt o'tgach Qamashi tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinosari Z.Do'syorov maktabimizga keldi. U yuqori tashkilotlarga yo'llagan barcha murojaatlarim nusxalarini menga ko'rsatib, Xalq ta'limi vazirligi ularni hal qilish vazifasini o'ziga yuklaganligini ma'lum qildi. Mudir o'rinosari ushbu murojaatlarimni "yopib yuboruvchi" tushuntirish xati yozib berishimni so'radi. Axir bu "o'zing yozgan murojaatlarini o'z qo'ling bilan yirtib tashla" qabilidagi talabning o'zginasi-ku!

Men viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga yuklatilgan murojaatnomalarim taqdiriga achindim. Z.Do'syorovga "Agar siz aytgandek tushuntirish xatini yozib berganimda ushbu murojaatlarini yuqori tashkilotlarga yo'llamas edim" deb javob berdim va noqonuniy talabga bo'yusunishdan bosh tortdim.



Oradan bir qancha vaqt o'tgach, o'sha vaqtida Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi T.Saidovdan javob xati keldi. Bu Xalq ta'limi vazirligiga, "Pravda Vosto'ka" gazetasiga murojaatlarim yuzasidan berilgan javob xati bo'lib, unda yozilgan gaplar haqiqatdan yiroq edi. Jumladan, javob xatida "Arizada keltirilgan holatlar tegishli mutaxassislar tomonidan murojaat muallifi ishtirokida o'rganidi (ijrochi M.Kenjayev)" deb ko'rsatilgan. Aslida bu yolg'on bo'lib, murojaatnomada yuzasidan hech kim men bilan uchrashmag'an, murojaatim tegishli mutaxassislar va ishchi guruhni tomonidan (o'zim ishtirokimda) o'rganilmagan.

2020-yilning 11-mart kuni maktabga Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi xodimi M.Kenjayev va Qamashi tumani xalq ta'limi bo'limi xodimi

Sh.Rahmonov murojaatlarim yuzasidan o'rganish o'tkazish uchun kelishganini ma'lum qilishi.

Viloyat XTB xodimi M.Kenjayev qanday muammolar borligini so'radi.

Men unga maktab ma'naviyat xonasida chiroqlar yonmasligi, maktab ichkarisida ayrim joylarda koridor chiroqlari yonmasligi sababli quyoshli kunlarda ham qorong'ulik hukm surishi, maktab tashqarisiga tungi yoritgich chiroqlari o'rnatilmagani bois kechalari bu yer qo'rinchli tus olishini, maktabda muqim o'qituvchilar xonasi yo'qligi — o'qituvchilar xonasi qishda maktabda tibbiyot xonasiga, bahorda ilmiy bo'lim mudirining tor xonasiga ko'chib turishini, tashqaridagi yong'in xavfsizligi uchun qurilgan hovuzning atrofi temir panjara bilan o'ralmagani, hovuz ustiga temir qopqoq qo'yilmagancha xavfli

Viloyat XTB xodimi M.Kenjayev qanday muammolar borligini so'radi.

Men unga maktab ma'naviyat xonasida chiroqlar yonmasligi, maktab ichkarisida ayrim joylarda koridor chiroqlari yonmasligi sababli quyoshli kunlarda ham qorong'ulik hukm surishi, maktab tashqarisiga tungi yoritgich chiroqlari o'rnatilmagani bois kechalari bu yer qo'rinchli tus olishini, maktabda muqim o'qituvchilar xonasi yo'qligi — o'qituvchilar xonasi qishda maktab tibbiyot xonasiga, bahorda ilmiy bo'lim mudirining tor xonasiga ko'chib turishini, tashqaridagi yong'in xavfsizligi uchun qurilgan hovuzning atrofi temir panjara bilan o'ralmagani, hovuz ustiga temir qopqoq qo'yilmagancha xavfli tarzda yotgani, maktabda ma'naviyat va faollar zali bo'lib kelgan xonalar sinfxonaga aylantirilgani, bir sinfxonaning linoleumi yo'qligi, tagi sement sinfxonada o'quvchilar qish kunlari sovuq qotib o'tirishini aytib, bunday oxiri yo'q kamchiliklarga toqat qilib bo'lmasligini ta'kidladim.

tarzda yotgani, maktabda ma'naviyat va faollar zali bo'lib kelgan xonalar sinfxonaga aylantirilgani, bir sinfxonaning linoleumi yo'qligi, tagi sement sinfxonada o'quvchilar qish kunlari sovuq qotib o'tirishini aytib, bunday oxiri yo'q kamchiliklarga toqat qilib bo'lmasligini ta'kidladim.

Viloyat XTB xodimi M.Kenjayev esa bu ko'rsatmalarimga javoban linoleumi yo'q, poli sement xonaga ishora qilib: "Buning uchun siz aybdorsiz. Siz shu sinfxona eshigini mixlab tashlab, bu yerga o'quvchilarni kiritmasligisngiz kerak edi", dedi. Shundan so'ng, bu o'rganishlardan maktabga hech qanday foyda kelmasligini, murojaatim adolatlari, xolislik yo'li bilan hal qilinmasligini angladim va murojaatimni o'rganishlarini rad etdim. Ammo M.Kenjayev menga qarshi ish tuta boshladi.

Dastlab o'qituvchilarni bir joyga to'plab, ular orasida meni muhokama qilmoqchi, hamkasblarimni menga qarshi qo'yamoqchi bo'ldi. Ammo buning uddasidan chiqolmagach, o'zi bilan birga kelgan Sh.Rahmonov bilan maktabning bir sinfxonasiga kirib, shubhali ishlarni amalga oshira boshladi.

M.Kenjayevning xatti-harakatidan norozi bo'lib telefon orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qashqadaryo viloyatidagi Xalq qabuksonasiga murojaat qildim. U yerdagi mutaxassisni M.Kenjayev bilan bog'ladim. Ustidan shikoyat qilganimdan achchiqlangan M.Kenjayev dalolatnomasi tuzib, unga men bilan oldinroq kelishmovchilikka borgan ba'zi o'qituvchilarni izlab topib imzo qo'yirdi. Shuningdek, o'rganishda ishtirok etmagan "Savsantera" MFY raisi imzosi va muhrini noqonuniy tarzda qo'yib, dalolatnomani tasdiqlatdi.

Aslida esa yuqori tashkilotlarga qilgan murojaatlarim yuzasidan maktabimizga kelgan M.Kenjayev men rad etganimdan so'ng o'rganishni o'txtabit, orqamidan yashirincha xatti-harakatlar qilmasligi kerak edi. Uning ko'rgan tadbirlari menga nisbatan adovlatli bo'ldi.

M.Kenjayevning yuqoridagi ishlari noxolislik va qonunlarimizni obro'sizlantirishdan boshqa narsa emas!

Ushbu murojaatim ham boshqalari kabi yo'qolib ketmasligi uchun gazetada chop etilishi va maktab moddiy-teknik muammolari hal etilishini so'rayman.

Ona tili ta'limida yangi bosqich

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi turli vaziyatlarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsnini kamol toptirish ekanligi ko'p bora ta'kidlanadi.

Demak, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlardan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili ta'limining mazmuni o'zgarmoqda. Biz yillardavomida ona tili ta'limi orqali o'quvchilarga grammatic qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o'rgatib keldik. Endilikda grammatica bilan bir qatorda o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)ni har bir darsda amaliv qo'llash va o'quvchida bunga nisbatan ko'nikma shakllantirish darkor. Ana shu fikrlarning isboti sifatida umumta'lim muassasalarining 10-11-sinflari uchun 2020-yilda nashrdan chiqqan "Ona tili" darsliklarining 2-qismini keltirish mumkin. Avvalo, mazkur darsliklar hozirgi zamona bula psixologiyasiga mos ravishda tuzilgan: mashqlardan qonuniyat yaratilishiha e'tibor qaratilgan. O'quvchi matn bilan tanishgach, o'z fikr-mulohazalar asosida xulosaga olib kelgingan va nazariy matn berilgan. Mavzularni kundalik hayotga yaqinlashtirish barobarida muo-

mala madaniyati, odob-axloq me'yorlari, milliy qadriyatlarni ulug'lovchi o'zbekona dunyoqarash bilan uyg'un matnlari berilgan. Masalan, 10-sinf darsligidagi "Hikoyat" (1.1-topshiriq), "Devon orzusida" (10.1-mashq), "Mahmud G'aznaviy va Ayoz" (11.1-mashq) matnlari; 11-sinf darsligidagi "Fasohat gulshan" (1.1-mashq), "Ijodkorning baxti" (11.3-mashq) matnlar asosida berilgan topshiriqlarni bajarish davomida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalar hosil qilinadi.

Ma'lumki, sinfdagi barcha o'quvchilar ham ona tili ta'limiga birdek qiziqmasligi haqiqat: kimdir biologiya, kimdir matematikaga, yana kimdir texnikaga qiziqishi mumkin. Darslikda fanlararo integratsiya tamoyiliga amal qilinib, "Stenografiya tarixidan", "Ruhiy muammolar davosi", "UNESCO", "Xaridorni kutib olish ham san'at" kabi matnlari berilgan. Natijada o'quvchilarni ona tili ta'limiga birdek qamrab olish imkoniyati yaratilgan. Bolalarni dunyo ilm-fani va texnika yutuqlari bilan tanishirish testlar va topshiriqlarni bajarish orqali ham davom ettirilgan. Masalan, 10-sinf darsligidagi 8.3-mashqda shunday topshiriq berilgan:

Quyida berilgan so'zlardan mosini nuqtalar o'miga qo'yib chiqing.

AYYORONA IXTIRO

Amerikalik... elektrotexnik Tomas Edison muntazam ravishda nimalarnidir ixтиro qilib yurishi bilan mashhur edi. Bir kuni uning dalahovlisida mehnemon bo'lgan do'stalaridan biri hovliga kiraverishdagi kichkina ...ning ochilishi qiyin bo'lganligidan nolidi.

– Uni ochish uchun bor kuchimni



...imga to'g'ri keldi, – dedi u.

– Tushunarli, – dedi Edison, – lekin kuchingiz bekor ketgani yo'q. Siz o'sha eshkini ochish bilan ...dagi suv idishga o'ttiz ... suv ko'tardingiz.

(buyuk, taniqli, darvoza, eshik, ishlatish, sarflash, kuch, quvvat, chelak, tom, litr, tonna).

Badiy asarlari turli xil lug'atlar bilan ishslash muammosi barcha ona tili va abadiyot ustozlarining og'riqli nuqtalaridan bira. O'quchining nutqini rivojlantirish, so'z boyligini oshirishda turli xil lug'atlar bilan ishslash juda muhim. Shuning uchun chop etilgan darsliklarda lug'atlar bilan ishslashga doir topshiriqlar berilgan, shuningdek, so'zlarning izohi, ma'nodoshligi, talaffuzdosho zilar sharhi ham nazardan chetda qolmagan. Masalan, 10-sinf darsligidagi "Hikoyat" (5.6-topshiriq), 11-sinf darsligidagi "Ramzlar tili" (4.1-mashq) matnlari o'quvchilar ajratigan so'zlarining majoziy ma'nosini aniqlash davomida inson umrining mazmuni, uni go'zal amallar bilan bezash lozimgili borasida qimmatli xulosaga keladilar. Ayniqa, 11-sinf darsligida matn turlari va uning tahviliga bag'ishlangan 20-mavzu — "Matn va lug'at bilan ishslash" darsi ham o'qituvchi uchun, ham o'quvchi uchun ijodiy ish jarayoniga aylanadi.

Har bir mavzu uchun berilgan "Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar" ruknida bolani mustaqil ijodiy fikrlashga va og'zaki nutqini o'strishiga undaydigan, tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladigan, savodxonlik va so'z odobini shakllantiradigan testlar, savol-

lar va topshiriqli matnlar keltirilgan. 10-sinf darsligining 84-betiga murojaat qilaylik:

1. Berilgan turkiy so'zlarining boshqa tillarga o'zlashish sabablari va ularning lug'aviy ma'nosini o'qituvchizing yordamida toping: tovarish, karandash, utuyg, Baykal, Yenisey, bekat.

Namuna: tovarish – ikki qismidan iborat turkiycha (tovar + esh) so'z, qadimda karvonlardagi mol (tovar)ni manzilga yetkazib berishda yo'ldosh (esh) tushunilgan – safaragi hamroh.

2. Poliglotlik so'zinining ma'nosini aniqlang va uning ahamiyatini tushuntiring.

3. Quyidagi SMS xabarni imlo jihatidan tuzatib yozing! Yozishma madaniyati xususida o'z munosabatingizni bildiring!

Sava! Tuzumusan iwla qaley bugn oqwg'a borasami borsen maniyam bor qildib goy wave iwm kop tezro javop yoz

Maktab o'quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlash, ulaming hayotda o'z o'rnini topishlariga motivatsiya bo'lib xizmat qiladigan "Baxt pulda emas(mi?)", "O'rdak emas, burgut bo'ling", "O'zinga uchta haqiqiy do'st top", "Nobel mukofoti" (11-sinf) matnlari ilk bor darslikka kiritilgan. Shuningdek, bo'lajak bitiruvchilar uchun kelgusida kerak bo'ladigan alohida bir masala – matnni jadval va diagramma shaklida berish yoki ushu shakllarda berilgan matnlarni o'qib tushunish mavzusi 10-sinf darsligidan o'rin olgan.

Umuman olganda, 10-11-sinflar uchun yaratilgan "Ona tili" darsliklari 2-qismi maktab til ta'limida yangi bir bosqichni – yosh avlod fan asoslarini oson, tushunrali va qiziqarli tarzda o'zlashtirishiga imkon beruvchi jarayonni boshlab berdi, deya olamiz.

Xosiyat SUVONOVA, Shayxontohur tumanidagi 59-IDUM oly toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi Firuza XOLMATOVA, Xatirchi tumanidagi 38-maktab oly toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Darslik e'tirofi

Respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy tarmoq guruhlari a'zoman.

Ularning fikrlarini doimo kuzatib boraman. 8-sinf "Ona tili" darsligi haqida ko'plab noroziliklarni o'qidim. Darslikda berilgan mavzular, ayniqsa "Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishslash" mavzusi ko'pchilik o'qituvchilarga maktablarda lug'at kitoblarining mavjud emasligi tufayli qiyinchilik tug'dirayotgani aytilmoqda.

Ammo darslikdagi nazorat ishlarining tanlov sifatida berilganligi nafaqat o'quvchilar, balki biz o'qituvchilarni ham ijodkorlikka undadi. Har doim bugun nazorat ishi olamiz, deganimda o'quvchilarning yuzuga qarab, ularning zerikanligini his qilardim. Bu safar bunday bo'lmadi. Nazorat ishidagi "Eng chiroli va ta'sirchan nutq" tanlovida matn tayyorlash uchun berilgan mavzulardan biringa o'zim ham matn yozdim va

uni o'quvchilarga o'qib berdim. Tanlovida kim g'olib bo'lsa, taqdirlanishi va g'olibga sovg'a ham borligini atydim. Har bir o'quvchi o'z fikrini yozishi, 30 nafar o'quvchidan o'ttiz xil fikr chiqishi, o'ttiz xil fikr o'ttizta asarning yaratilishi uchun asos bo'lishimi tushuntirdim. Nazorat ishidan so'ng o'quvchilarning bir-biridan chiroli, takrorlanmas fikrlarini o'qib juda xursand bo'ldim. O'zim ham kutmagan natijaga erishdim.

O'quvchim Malika Inoyatovanning "Mehr — gul, qahr — tikan" mavzusidagi matni o'quvchilar tomonidan e'tirof etildi. U shunday yozadi: "Olloh insonga bergan shirin ne'mati — bu jannat ifori ufurib turgan jajjigina chaqaloqdир. Bu ne'matni shu darajada mukammal qilib yaratdiki, farishtalar uni ko'rib lol qolishdi. Ushbu ne'matga qo'shib, tangri insonga qahr, g'azab, o'kinch, sog'inch, mehr kabi tuyg'u-

larni ham berdi. Inson yashar ekan bu tuyg'ularga o'z hayot yo'lida birinma-ketin duch kela boshlaydi.

Shulardan biri mehrdir. Men mehrni inson tanasining jon tomirlarida oqayotgan qonga o'xshataman. Qon tomirida bu tuyg'u oqayotgan insonlar farzandiga, o'zining yaqninlariga mehrni ko'rsata oladi. Lekin bu tuyg'uni his qilmaganlar-chi? Ular farzandlarini mehrbonlik uylariga tashlab ketadi.

Mehr to'rt harfdan iborat shirin tuyg'u. Yaratgan insonga mehrdek oliy tuyg'uni bergan ekan, uni dunyoning o'kinchi narsalariga almashtirmay bir-birimizga ularashaylik. Zero, mehr gul kabitidir. Gulni hidlab, iforini his qilganimiz sari yuragimiz o'z-o'zidan quvonchiga to'lar ekan, uni qahrga aylantirib tikan kabi ozor berib qo'yamaylik".

Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar mustaqil fikrlay oladi, oqni qoradan ajrata oladi. Bugungi kunda darsda qo'yiladigan o'quvchida shakllantirish lozim bo'lgan kompetensiya (mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda o'llay olish qobiliyati) shu emasmi? Faqatgina bizdan tabab: o'quvchini to'g'ri yo'naltirishdir. Darslikdagi o'zgarishlarni avvalo o'zimiz to'g'ri qabul qilib, o'z ustimidza ishlasak, ko'zlagan maqsadimizga erishamiz. Chunki darslikda berilgan mashq va matnlari o'quvchini ijodkorlikka undaydi. Fikrimcha, nazorat ishi, nazorat ishi tahillari va ularagi mavzular e'tirofga sazovor.

Zarnigor FATTOYEVA, Shofirkon tumanidagi 1-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Shunday kezlar bo'ldi: "ha" yoki "yo'q" degan javobni olib berish uchun ham uning g'arib qo'liga qarab turganlar topildi.

Xalq ta'lifi vazirligi diqqatiga!

Imkonsizlikni "sindirib"

yoxud maxsus maktab-internat o'qituvchisi loyihalariga kim e'tibor qaratadi?

Qattiq jism, masalan, toshning orasidan giyoh unib chiqqanini ko'rganmisiz? Tabiatning bu g'ayrioddiy manzarasi bizga hayotda maqsad sari intilib yashash kerakligini, ro'paramizda qanday to'siq bo'lishidan qat'i nazar, uni yengib o'tishga bo'lgan ishonchimizni, umidimizni so'ndirmasligimiz lozimligini uqtirayotgandek go'yo. Shu bois ba'zan imkonsizlar imkonlari borlar erisha olmagan cho'qqilarni zabt etganida tosh ustida gulni ko'rgan kabi hayratlanamiz. Aslida, har qanday yutuq zamirida inson irodasi va halovatini toblovchi zahmatli mehnat yotadi.

Sulton hozir 39 yoshda. Glaukomma xastaligi tufayli o'n olti yoshida bu yorug' olamni ko'rish baxtidan mahrum bo'lgandi. To'g'ri, dastlabki o'tish davrida rosa qiyalndi, o'n yilcha bu chorasiilikka ko'nikolmay yurdi. Ammo vaqt o'tishi bilan bunday hayotga moslashdi. O'z oldiga maqsad qo'ydi. Qiziqishlari ustida ishlaadi, olyi o'quv yurtida boshlang'ich ta'lim bo'yicha tahsil oldi. Avvaliga tadbirkorlinski yo'iga qo'yomoqchi bo'ldi, biroq sarmoya yo'qligi bois bu rejalar keyingi suridili.

"Barkamol avlod" bolalar ijodiyoti markazida ishlashi. Keyinroq bir paytalar o'zi tahsil olgan ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan 24-maktab-internatiga ishga joylashdi. To'garaklar va qo'shimcha darslar janayonida uchravdigani noqlayliklar yoki kamchiliklar uning e'tiborini torta boshladidi. "Nega endi sog'lom bolalar o'qiydigani maktablarda ishlataladigan doskalar maxsus maktablarda qo'llanmasligi kerak?", "Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilar o'zlashtiradigan bilimlarni mustahkamlovchi imkoniyatlar ustida bosh qotiradigan payt kelmadimi?" kabi savollar unga sira tinchlik bermas edi.

Shu qiziqish uni ko'zi ojizlar maktablarida faoliyat olib boruvchi o'quvchilar metodikasida qo'l keluvchi mutlaqo no'an'anavy doska yaratish ustida izlanishga undadi. Ilk urinishlar o'z mevasini berdi:

doskaning birinchi namunasini paydo bo'ldi. Doska ham, harflar o'rnida qo'llanuvchi toshlar diametri ham yirik ko'rinishida edi. Bora-bora ishini takomillashtirib, o'z ixtirosini foydalanish uchun qulay bo'lgan shaklga keltirdi. Kartoshka kattaligida bo'lgan toshlar va doska kataklari bakhashka qopqog'i hajmini oldi. Doskaning hozirgi ko'rinishi (bo'yi 1 metr dan kamroq, uzunligi 2 metr dan oshiqroq) ancha ixchamlashtirilgan. Albatta, oson bo'lgani yo'q. Mahsulot konstruksiyalari ustida ishlashda ustalarning ham yordamiga tayanishga to'g'ri keldi. Tunukasozlar, duradgorlar, besniksozlar oldida iltimos bilan sarg'a yanigan kunlari ko'p bo'ldi.

Ahamiyatli jihat shundaki, Sultan o'z ishini takomillashtirish jarayonini hanuz davom ettirmoqda. Doskada ishlashda vominida o'quvchini va o'quvchiga qulay bo'lsin uchun bajariladigan kombinatsiyalarni soddalashtirish, shuningdek, toshlar bilan ishlashda ketadigan vaqmi yanada tejash yo'lida jiddiy izlanayti.

— Doska jami sakkiz qator bo'lib, bir qatorda 24 ta katak bor. Har bir katakda oltitadan nuqta bor va har bir katakda oltimishdan ortiq kombinatsiya bajarish mumkin. Alifbo, timish belgilari va matematik belgilari mavjud bo'lib, unda boshlang'ich sinflar uchun barcha fanlarni o'tsa bo'laadi. Ochig'i, ko'zi ojizlar maktablarida doskalardan foydalanish amaliyoti yo'q.

Jarayonlar og'zaki, yozma va ko'rgazmali ravishda amalga oshirib kelinadi. Doskaga chiqib ishlash bolaga ham, uning ustoziga ham birdeq zavq bag'ishlaydi. Bu jarayoni maktabgacha ta'lum sohasiga ham qo'llash yaxshi samara beradi, — deydi Sulton Sultonov.

Qahramonimiz doskada ishlash o'z amaliyotida nechog'li samara berganini to'lqinlanib gapiradi. Bolalardagi ishtiyoq va mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarishga bo'lgan talpinishdan sevinib ketadi. An'anavy usulga qaraganda bu jarayonda o'quvchining o'zlashtirishi jaladroq kechayotganidan o'zi hayajonlangan va ruhlangan kezlar ko'p bo'lgan. Darsda o'quvchilarini turli qiziqari o'yinlar bilan band qilishni ham unutmaydi. Bunda unga an'anavy (bo'rt yordamida ishlanadigan) doskalar yordamga keladi. Sultan ularni o'z doskasi yuzasiga birkirtirgan bo'lib, ular maxsus roliklar yordamida harakatladi va istalgan payti istalgan burchakka surib qo'yish mumkin bo'ladı.

Timib-tinchimas o'quvchiga ko'zi ojizlar muassasalarida daftara va ruchka o'rnida ishlatiladigan Brayl pribori hamda grifel o'quv qurollari chetdan kelishini, o'zimida ishlab chiqarish yo'iga qo'yilsa, ularning tannarxi ham anchha arzon bo'lishini aytadi va buni jonli misollar bilan asoslab bera oladi.

U tabiatian yangilikka intiluvchan inson. Shu bois nimalardan yaratigisi keladi, odamlar hayotini, ko'proq imkoniyati cheklanganlar turmushini yaxshilashga xizmat qiladigan ixtiolar ustida ishlashni yoqtiradi. Masalan, ko'zi ojiz odamga velosiped boshqarishdek baxtni berish nega mumkin emas? U yaratayotgan modelda buning iloji bor...

Sulton o'zi yaratgan doskani omalashtirish uchun poytaxtgacha bordi. Afus, uni tushunadigan, to'g'riroq'i ishining ahamiyatini idrot eta oladigan odamni topolmadi. O'zi uchrashgan "mutaxassis"lar esa "o'lay agar, tushunmadim"

deganday yelka qisishdan nariga o'tishmadi. Shunday kezlar bo'ldi: "ha" yoki "yo'q" degan javobni olib berish uchun ham uning g'arib qo'liga qarab turganlar topildi.

U ta'lim yo'nalishida, ayniqsa, ko'zi ojizlari qo'llab-quvvatlovchiga grantlar yo'qligini, borlariga arzimagan mablag' yo'naftirilayotganligini aytadi. Ko'proq til bilmasligidan o'kinadi. "Til bilganimda, qo'l qovushtirib o'tirmagan bo'lardim. Xoriga chiqardim, loyiham bilan qiziqadigan insonlarni izlab topardim", deydi.

Bugun Buxoro shahridagi 24-maxsus maktab-internatda boshlang'ich sinflarga saboq berayotgan Sultan Sultonov bilan suhabatimiz maroqligi kechdi. Harakatlari va o'zini tutishini ko'rgan odam uni sira yam ko'zi ojiz deb o'ylamaydi. Negaki, qahramonimizning o'zi qalban kemtikliklari yenga olygan va irodasiga suyangan inson. Uning ko'rish qobiliyati cheklangan bo'lishiga qaramay, o'ziga bo'lgan ishlonchi va intilishini ko'rib hayratimiz oshdi, ham havasimiz keldi. To'rt muchamiz sog' bo'laturib mavjud imkoniyatlari qizmat qiladigan sanogligina qismidan foydalanishimizdan uyalib ketdik. U jamiyatda o'z o'mni borligidan suyuniadi: do'stlari bilan to'y-hasham va ma'rakalgara boradi, qo'shnilariga qo'shilib machitga qatnaydi. Innovatsion yondashuvni borligini bilganlar undan tez-tez maslahat olib turishadi. Maktabda ham uni qadrashadi. Hamkasblar "ustoz" deya hurmat bilan murojaat qilishadi. Bir hisobda undagi kemtiklik o'zi uchun ham, atrofdagilari uchun ham sezilmaydigandek. Oilada ham baxtli — ikki nafar farzandi bor.

Ko'zi ojizligi uchun u eshil taqillatishga ulgurmasidan orqa o'girayotganlar insofga kelsalar, loaqla undan shirin so'zlariyu, ikki og'iz maslahatlarini ayamasalar qanchalar soz bo'lardi-ya! Shunda jamiyatagi Sultan kabilari quyoshdan to'silgan giyoh singari soyada qolib ketmasmidt!

Hamzabek TURDIYEV

Suratlarga jon kirsa...

Yashagani qo'yasizmi yo'qmi?! O'tganda ham, qaytganda ham bir turtmasangiz ko'nglingiz joyiga tushmaydi. Nima, men sizga o'qituvchimanmi, tekin tayoqning tagida qoladigan? Osmonga qarab yotsam, yotibman-da, xo'jayinmisiz? Qishi bilan qaldirg'ochlar kelarmikan deb ko'kka tikildim, bahorda yomg'irga intiq bo'lib umrim osmonga qarab yotish bilan o'tdi. Xo'p, o'zingiz yaxshimisiz? Bola-chaqa deganday.

Bamaylixotir yotishimga qarab bu bir bekorkasal, yo'bo'lsa amaldor-pamaldor bo'lsa kerak, deb o'ylasangiz adashasiz. Cho'ponning bolasiman. Amadorlikka yo'l bo'lsin. O'zingiz bilasiz, odatda bu paytlarda osmondag'i oyga tinim bor, tortilgan yoya tinim bor, shoshib oqqan soyga tinim bor, lekin cho'ponga tinim bo'lmaydi. Bu yil Xudo yomg'irdan qisdi. Qir-adir tutab yotibdi. Qo'yлага o'zimni bera-manmi? Uyimizni kim boqadi? Shu desangiz men ham "surish kerak" degan shiorga amal qilib, Rossiya ketmoqchiman. Kassa-

ga borsam tumonat odam. Biletlar, otasi-ku mayli, katta bobosining narxida. Bu pulni Ilon Maskka bersang, Marsga 4 marta kataysa qildirib keladi. Yana bir-ikki oy kutasiz, deganiga o'laymi? Nima ham qillardim. Bor budimni sotdim, enasini emsin. Endi kutib yotibman.

Xo'sh, gurungandan oling-chi. Shaharlarda nima yangiliklar? Ha, tinch bo'ling. Emasam, bidzan eshitin hangomaning o'zini. Shoshmayapsizmi o'zi? Shoshib qayqqaytan borasiz? Rizqingiz butun bo'lsa, topilida shu 440 ming so'n. Ey, bu

telefon chiqqani zo'r bo'ldi-da. Tupkaning tubidagi bir qishloqda turib, dunyoning istalgan burchagida nima bo'lyapti, bilib o'tirasen. Faqat qirma-qir yugurib, aloqa yaxshi joyni topib olsang bo'lgani.

Shu desangiz yaqinda tilig'irromda bir videoga ko'zim tushdi. Bilasiz, komissiysi kelyapti desa, ming yillik muammonni bir kechada hal qiladigan xalqmiz. Qo'noq bo'lgich biror kattakon bo'lsa-ku, eh-he... Tunov kuni Prezident Surxonaryoga borgan ekan. Yo'l bo'yida qurilgan ko'p qavatlari uylarda tonggacha bir yangilik sodir bo'libdi. Hozir yoz, yana Surxonaryoday joyda kondisjonerlari yashab bo'ladimi? Ammo u o'lgurni sotib olishga hammanning ham qurbi yetmaydi. Lekin bu holga Aziz Mehmonning ko'zi tushib qolsa yuat-da. Bunday paytlarda mas'ullarning kallasi nur tezligida ishlab ketadi o'ziyam. Ular shunday bir narsa o'ylab topibdi, tavba deb yo'qangizni ushlaysiz. Nima qilibdi chizib olardi. Suratlari tarbiyalaridagi ularni. Zo'r-a?

Yo bo'lmasa, maktablarga ko'zlarini kulib turgan, ko'rsatilayotgan e'tibordan o'rbi si to'libtoshib ketgan o'quvchining kattakon plakatini osib qo'yardik

ning rasimini chizib qo'yishibdi azamatlar (o'sha uylarning o'zi ham surat emasligiga kafolat berolmayman). Bormi, bor. Devor eski bo'lsa ham oqlangan bo'lsin deganday. Bu juda ajablarni hol ham emas aslida.

Agar qarsak chalish bilan biror narsa o'zgarsa edi. O'zbekistoniga qarsak chaluvchi xizmatchi bo'lib ishga kirardim, degan mazmundagi she'ri bor edi shoirlardan birining. Agar barcha muammolar rasm chizish bilan hal bo'lganidan men ham Rossiya-possiyani yig'ishitirib, rassomlikni tanlardim.


Tasavvur qiling, chindan ham shunday bo'lib qolsa-ya. Hamma o'ziga keragini chizib olaverardi. Anavi chopqillab yurgan bolarlar Rossiya ketib, 5-6 yildan beri qorasini ko'rimmag'an, puli bor-u o'zi yo'q ota-onalarining rasimini chizib olardi. Suratlari tarbiyalaridagi ularni. Zo'r-a?

Yo bo'lmasa, maktablarga ko'zlarini kulib turgan, ko'rsatilayotgan e'tibordan o'rbi si to'libtoshib ketgan o'quvchining kattakon plakatini osib qo'yardik

(jiyan-piyanimizga ikki qo'ysa, haqiqiyisini shu plakatning orqasida bemalol tepkilayerverardik. Birovning ko'zi ham tushmasdi. So'raguvchilar ham rasmiga qarab, "hammasi" joyida ekan deb ketaverardi-da).

Chiroq o'chib qolsa, "farish-tadek" elektrisetchilarni so'kib, bekorga gunohga botmasdan shundoqqina suratini osib qo'yardik shiftimizga. Yo'llarining surati, bog'u bo'ston bo'lgan cho'llarning surati, pora olmagan qo'llarning surati... Shahar-u qishloqlarga kiraverishdaadolatnatnrasimini chizib qo'yardik katta qilib. Gapirsa, o'qisa, faqat suratlarga ishlasa... eh-he hamma joyni rasm bosib ketar ekan! Suratlari jamiyatiga aylanib qolarkaniz.

Mayli, siz yo'ldan qolmang, ishingizga boring. Ko'p gapirib yubordim o'zi. Endi men ham sekingina quyonning rasimini chizmasam bo'lmaydi.





Tajriba

Texnologik xaritadagi rim va arab raqamlari

O'quvchilarga o'quv yili yakunida ikki yoki uch mavzuda topshiriq berishga odatlanganman. Bu gal ham ta'til davomida tarixiy mavzudagi asarlarni mutolaa qilish hamda rim raqamlarini o'rganishni tavsya qildim. Ular uchun elektron dars tayyorlab, mavzuni yana bir bor tushuntirib, slayd tarqatdim:




O'quvchilar bilan birga rim va arab raqamlari taqqoslanadi:



yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdidi, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi. Ekzistensializm vakillari 2 yo'nalishga bo'lingan:

1. Dunyoviy (Xaydegger, Sartr, Kamyu).
2. Diniy (Yaspers, Marsel).

Xaydegger, Sartr, Kamyu larning ta'limoti ga ko'ra inson o'zini yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud. Qaysi birini tanlashda u erkindir.

Diniy ekzistensializm vakillari fikricha, inson o'z erkin faoliyat davomida Xudo-ga qarab unga yetishish uchun koinot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insongaga tahlikali onlarda, tashvishda, yolg'izlikda namoyon bo'ladi. Hayot, o'lim, qo'rqinch, dahshat tushumchalari bu ta'limotning markaziy tushumchalaridir. Diniy ekzistensialistlarning fikricha, olam ma'nosiz, uning mohiyatini anglash abad abad jumboqligicha qoladi, inson umri o'tkinchi bo'Iganligi uchun ham dahshatlidir.

Esseda lirik chekinish, peyzaj, portret, epigraf yo'q. Esse mavzusi ekzistensializm falsafiy ta'limoti, g'oyasi esa bu ta'limot to'g'ri ekanini isbotlashga qaratilgan. Esse ekzistensialistik oqimda, ya'ni mavjudlikni ko'rsatib, mohiyatni yechish o'quvchiga topshiriluvchi adapib yo'nalishda yozilgan. Mayhumliklarning ko'p uchrashi o'quvchi fikrini chalg'itadi, kuchliroq tafakkur qilishga undaydi. O'z qarashlari to'g'ri ekanini isbotlash uchun muallif Xaydegger, Dekart, Didro, Volter, Kant, Nit-she, Zolya, Fransis Ponj, Rasin Jan kabilarning hayoti va ijodiga ko'p bor murojaat qiladi. Shu bilan birga essa u shunchaki ijob etamiz degan qarash rad etiladi. Aksincha, kelajak hayotini inson o'z harakatlari bilan barpo etishi uqtiriladi. Faylasuf essesida hayotning ma'nosi yo'qligi, uni har kim o'zi o'yab topishi haqidagi mulohazalarini kitobxonga havola etgan. Har bir inson mutolaadan so'ng o'zicha mantiq kashf etadi, o'zicha xulosaydi. Bu asar eng avvalo doimiy harakat yutuqlar kafolati ekanini anglatadi. Jan Pol Sartr "Ekzistensializm" essesida boshqa ta'limotlarni rad qilmagan, shunchaki, o'zi tanlagan oqim haqligini isbotlashga intilgan xolos. Hayotni o'zingizniki mulohazalarini aylantirmas ekansiz, u siz uchun hech narsa kasb etmaydi. Umringizga o'zingiz ma'nobaxsh eting, hayot kundaligingizni o'zingiz to'ldiring, shundagina u kamalakdek jilolana-di. Asarning ajoyib mazmunini shu ikki jumla bilan ifodalash mumkin.

Risolat MAXSUMOVA,
O'ZJOKU talabasi

"Ma'rifat" repetitorি

Majbuliy fanlar asosida tuzilgan, mayzulashtirilgan testlarning 33-varianti

ONA TILI (11-sinf I qism)

1. Qaysi qatorda eskirgan deb qaralgan so'zlar ni qayta qo'llash orqali tilimizning lug'at boyligini oshirishga xizmat qilgan so'zlar berilgan?

- A) ma'naviyat, millatparvar, qadriyat, jarroh
- B) janob, kapital, parlament, firma
- C) nodavlat, nohukumat, notijorat, nomoddiy
- D) kolxoz, sovxozi, ateist, modellaشتirish

2. Quyidagi so'zlardan qaysi biri "foydalanish", "ishlatish" degan ma'noni anglatadi?

- A) munaqqid
- B) istifoda
- C) unsur
- D) intiho

3. "Xotinlarni falonchi xonim yoki begin deb atash bor. Bu so'zlardagi -im qo'shimchasi egalik qo'shimchasi deb tushunish bor. U holda nima uchun egalik qo'shimchasi qo'shilganda xon bilan bek ayol kishiga aylanadi, degan savol tug'ilishi tabiyidir. Vaholanki, xonim va begin so'zlaridagi -im qo'shimchasi egalik qo'shimchasi emas. Qadim turkiy tillarda "ona" ma'nosidagi uma so'zi bo'lgan. Begin va xonim so'zlarini tarkibidagi -im ana shu uma so'zining ixchamlashganidir. Demak, xonim "mening xonim" emas, "xon ona" va begin "mening begin" emas, "beg ona" degan ma'noda ekan".

So'zlarning kelib chiqishi haqidagi ushbu tavsif qaysi tilshunos olimga tegishli?

- A) Azim Hojiyev
- B) Alibek Rustamov
- C) Mazluma Asqarova
- D) Nizomiddin Mahmudov

4. "Ipidan ignasigacha".

Ushbu iboraning ma'nodoshi qaysi javobda berilgan?

- A) mayda-chuyda
- B) qilidan quyrug'igacha
- C) miridan sirigacha
- D) boshdan oyoq

5. Quyidagi hukmlardan qaysilar to'g'ri?

1. Shamol so'zining o'zi, aslida, shimoldan esgan yel bildiradi. Lekin hozirgi o'zbek tilida bu so'z keng ma'noda qo'llanadi.

2. Maxsus eski kitoblarda janubdan esgan yel "janub" deb ataladi, ammo bugungi o'zbekchada "janub" so'zi mazkur ma'noda butunlay ishlatalmaydi.

3. G'arbdan esgan yel eski kitoblarda "dabur" deyilgan, ammo hozir bu so'z to'lqin shaklini olgan va vayronalik keltiradigan kuchli shamolni bildiradigan so'zga aylangan.

4. "Sabo" so'zi she'rda ko'p ishlatalgani uchun o'z shakli va ma'nosini o'zgartirmagan. Sharqdan esadijan yel sabo deb ataladi. Sabo - tong yeli degan fikr ham bor. Bu fikrning paydo bo'lishiga tongda ko'pincha Sharqdan yel esib turishi sabab bo'lgan.

5. "Esin", "nasim" va "shabboda" yoki "shabada" so'zlarini mayin yelni bildiradi.

6. "Samum" va "garmasel" so'zlarini issiq shamolni, "sarsar", "izg'irin" yoki "izg'iriq" sovuq shamolni bildiradi. Bir ishni qilayotganda kishiga yordamlashdigan, masalan, kemani kerakli tomonga suradigan yel shurta deb ataladi.

7. "Bo'ron", "buran", "bunya", "purga" degan so'zlarning kelib chiqishi bir. Bular "buyruq" ma'nosidagi "bo'r" o'zagidan yasalgan so'zlardir. Mazkur so'zlarning rus va o'zbek tillaridagi ma'nolari haqidagi gapiradigan bo'lsak, ruschada "buran" deganda, asosan, cho'l yoki dalada qishda yerdagi qorlarni to'zg'itadigan kuchli shamol tushuniladi. O'zbek tilida bu ma'noda izg'irin yoki izg'iriq so'zlar qo'llanadi.

8. O'zbek tilida bo'ron deganda, umuman, shiddati shamol tushuniladi. Rus tilida bu ma'noda "buran" so'zi qo'llanadi. Amerika qit'asi atrofida bo'ladigan

o'ta kuchli okean shamolini "uragvan" yoki "uragan", janubi-sharqdagagi Tinch okeanining kuchli shamolini "tayfun" deb ataydilar.

- A) 2, 3, 5, 7
- B) 4, 6, 7
- C) 1, 2, 4, 5, 6, 8
- D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

6. Biz avlodlar merosini o'rganamiz.

Ushbu gapdag'i qaysi so'z leksik jihatdan mos emas?

- A) biz
- B) avlodlar
- C) merosini
- D) o'rganamiz

7. Chopmoq so'zi bilan bog'liq qaysi birikma "boltani ko'tarib urish" degan ma'noni anglatadi?

- A) yer chopmoq
- B) qilich chopmoq
- C) go'sht chopmoq
- D) ot chopmoq

8. "O'lmoq" so'zining o'rnida nutqning jo'yalligini ta'minlash maqsadida quyidagi so'zlardan nechtasini qo'llash mumkin?

Vafot etmoq, bo'lmay qolmoq, o'tib qolmoq, qabriga tigmoq, olamdan o'tmoq, olamdan ko'z yummox, u dunyoga ketmoq, go'rga kirmoq.

- A) 5 tasi
- B) 8 tasi
- C) 3 tasi
- D) 7 tasi

9. Iboralarning asosiyo qo'llanish o'rni, yashash joyi, asosan, qaysi nutq uslubiga xos?

- A) badiiy uslub
- B) so'zlashuv uslubi
- C) publisistik uslub
- D) ilmiy uslub

10. Qaysi qatorda metonimiya asosida ma'no ko'chishiga misol berilgan?

- A) Dasturxonga qarang.
- B) Bu kishi tirnoqqa zor.
- C) Qozonning qulog'iini ochib qaradi.
- D) Manglayi tirishar zinapoyaning, Panjara kuylaydi misoli chiltor.

11. Quyidagi iboralardan nechta "yuragi qon bo'lmoq" iborasi bilan ma'nodosh bo'la oladi?

Yurak-bag'ri qon bo'lmoq, yurak-bag'ri xun bo'lmoq, yuragi xun bo'lmoq, bag'ri xun bo'lmoq, qon bo'lmoq, yuragi eizilmoq.

- A) 3 tasi
- B) 5 tasi
- C) 4 tasi
- D) 6 tasi

12. O'xshatishning unsurlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) o'xshatiladigan narsa (yoki subyekt);
 - 2) erkin o'xshatishlar;
 - 3) o'xshatish asosi;
 - 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi;
 - 5) turg'un (doimiy) o'xshatishlar;
 - 6) o'xshatish etalon;
- A) 1, 2, 3, 4
 - B) 2, 4, 6
 - C) 1, 3, 4, 6
 - D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

13. Nutqda yaxlit ohangning shakllanishida nimalar asosiy unsurlar sanaladi?

- A) urg'u, bo'g'in, punktuatsiya
- B) intonatsiya, remarka, morfologiya
- C) urg'u, to'xtam (pauza), mazmuniy-hissiy intonatsiya
- D) urg'u, takror, olmoshlar

14. Hujjatlar tilida qaysi turkumga oid so'zlar ko'p qo'llaniladi?

- A) son
- B) fe'l
- C) sifat
- D) ot

15. Hovliga ikki bolali ayol kirib keldi.

Ushbu gapda "Hovliga bolasi bor ikkita ayol kirib keldi" mazmuni anglashilishi uchun qaysi so'zdan keyin to'xtam(pauza) ishlatalishi kerak?

- A) hovliga
- B) ikki
- C) bolali
- D) ayol

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 11-sinf "Ona tili" darsligining II qismida berilgan mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularini qunt bilan o'qing va bilimizning mustahkamlang.

G'anisher HAQNAZAROV,
Xatirchi tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA (6-11-sinf materiallari bo'yicha)

16. 3 kg shakar 10500 so'm bo'lsa, 2 kg 500 g shakar necha so'm bo'ladi?

- A) 7000
- B) 7750
- C) 8750
- D) 8000

17. Quyidagi sonlardan nechta butun son bo'ladi?

- | | | | | | | |
|-----------------|-----------------|-----------------|-----|-----------------|------|---------|
| $\frac{18}{12}$ | $\frac{13}{13}$ | $\frac{48}{16}$ | 0 | $3\frac{7}{15}$ | -5 | $-3,14$ |
|-----------------|-----------------|-----------------|-----|-----------------|------|---------|
- A) 2
 - B) 3
 - C) 4
 - D) 5

18. Chizmadagi qonuniyat bo'yicha keyingi qadamni toping.

- | | |
|--|--|
| | |
|--|--|
- A)
 - B)
 - C)
 - D)

19. 112-25·2+63:6 amallar tartibi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) a, b, c, d
- B) a, c, b, d
- C) b, d, a, c
- D) b, c, d, a

20. A mulohaza: "125>15·6+30, B mulohaza esa: "2 bilan tugagan sonlar 12 ga qoldiqsiz bo'linadi". Ushbu mulohazalar asosida to'g'ri javobni toping.

- A) A rost, B yolg'on
- B) A va B to'g'ri
- C) A yolg'on, B rost
- D) A va B yolg'on

21. Uzunligi 100 metr bo'lgan sim uzunliklari 5:7:13 nisbatda bo'lingan. Hosil bo'lgan simlardan eng yengilining uzunligini (m) toping.

- A) 25 metr
- B) 65 metr
- C) 45 metr
- D) 20 metr

22. Hisoblang: $\sqrt{3-\frac{2}{9}} + \sqrt{1+\frac{7}{9}}$

- A) $\frac{3}{7}$
- B) 3
- C) $\frac{7}{3}$
- D) -

23. Eng og'ir qutini toping.

-
- A) 3
 - B) 2
 - C) 1
 - D) hammasi teng

24. Yozda bir kilogram qulupnay 11000 so'm turadi. Zamira 4 kg 500 g qulupnay sotib oldi. Zamira 50000 so'mdan qancha qaytim oladi?

- A) 38500
- B) 32500
- C) 17500
- D) 500

"Ma'rifat" repetitorি

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 33-varianti

25. 6 raqami bilan tugaydigan ikki xonali sonlar nechta?

- A) 8 B) 9 C) 18 D) 19

26. Aylananing radiusi deb nimaga aytildi?


A) aylanada yotgan 2 nuqtani markaz orqali tutashuvchi kesma

B) aylanada yotgan nuqtalarni markaz bilan tutashuvchi kesma

C) aylanada yotgan ixtiyoriy nuqtalarni tutashuvchi kesma


D) aylanada yotgan ixtiyoriy nuqtalar orasidagi masofa

27. Grafikda 4 ta korxonaning kunlik ishlab chiqarish ko'rsatkichi keltirilgan. Unga ko'ra birinchi, ikkinchi va to'rtinchini korxonalarning kunlik o'rtaча sotuviga qancha?



28. Aholi uchun ajratilgan 12 hektar maydonni nechta oilaga 6 sotixdan bo'lib bersa bo'ladi?

- A) 20 B) 200 C) 2 D) 300



29. Qirrasi 1 santimetr bo'lgan kublar rasmdagidek joylashtirilgan. Hosil bo'lgan jismning hajmini (sm^3) toping.

- A) 6 B) 5 C) 7 D) 18

30. A mulohaza: "1 soni 2 ga bo'linmaydigan eng kichik tub son", B mulohaza esa: "385 soni 12 ga goldiqsiz bo'linadi". Bu mulohazalar uchun quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?

- A) A va B yolg'on B) A va B rost
C) A yolg'on va B rost D) A rost va B yolg'on

Keyingi sonda "Mulohazalar" mavzusiga oid testlar beriladi, bunda testlar 6–8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

**Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi**

O'ZBEKISTON TARIXI (11-sinf: 10–16-\$\$)

31. Mustaqillikning dastlabki yillarda O'zbekistonda qancha xalq ta'limi xodimiga davlat uylari ajratildi?

- A) 15 mingga yaqin
B) 5 mingdan ortiq
C) 7 mingdan ortiq
D) 10 mingdan ortiq

32. O'zbekistonda 2017-yil holatiga ko'ra bog'chaga borgan bolalar umumiy bolalar sonining necha foizini tashkil etgan?

- A) 45 foizini B) 30 foizini
C) 35 foizini D) 25 foizini

33. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarini ular tashkil etilgan yil bilan muvoqiflashtiring.

1) M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti;

2) I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti;

3) Singapur menejmentni rivojlantirish instituti;

4) Italiyaning Turin politeknika universiteti;

5) Janubiy Koreyaning Inha universiteti.

a) 2006-yil; b) 2007-yil;

c) 2008-yil; d) 2009-yil;

e) 2014-yil.

A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c, 5-e

B) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d, 5-e

C) 1-a, 2-e, 3-c, 4-d, 5-b

D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e

34. Toshkent davlat yuridik instituti qachon universitet maqomini oldi?

A) 2014-yil B) 2012-yil

C) 2015-yil D) 2013-yil

35. Qaysi yildan boshlab oliy ta'lim muassasalari ga kirish imtihonlari uchun yoppasiga test sinovlari joriy qilindi?

A) 1994-yil B) 1995-yil

C) 1996-yil D) 1993-yil

36. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldag'i "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ...

1) 9 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi;

2) O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi;

3) qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etildi;

4) Fanlar akademiyasining fan yo'naliishlari bo'yicha 3 ta bo'limi va Navoiy bo'limi tashkil etildi;

5) O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyati yo'lg'a qo'yildi;

6) Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a'zolari tasdiqlandi.

A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 3, 4, 5

C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5, 6

37. Qachondan boshlab O'zbekistonda xalqaro ilm-fan standartlariga mos keluvchi falsafa doktori va fan doktori darajalarini beruvchi ikki bosqichli tizimga o'tildi?

A) 2016-yil B) 2012-yil

C) 2018-yil D) 2017-yil

38. O'zbekiston Fanlar akademiyasining min-taqaviy bo'linmasi sifatida tashkil etilgan muassasa nomini aniqlang.

A) Xorazm Ma'mun akademiyasi

B) Sharq qo'lyozmalari markazi

C) O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi

D) Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvoqiflashtirish qo'mitasи

39. O'zbek kurashi bo'yicha ilk xalqaro musobaqalar qaysi shaharlarda o'tkazilgan?

A) Toshkent, Termiz B) Qarshi, Buxoro

C) Termiz, Shahrisabz D) Samarqand, Buxoro

40. 1996-yilda Olimpiya shon-shuhratni muzeyi yurtimizning qaysi shahrida ochilgan?

A) Toshkent B) Andijon

C) Namangan D) Samarqand

41. O'zbekistonda 2017-yilda tashkil etilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'naliishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab qaysi bobokalonimiz nomi bilan ataldi?

A) Mirzo Ulug'bek B) Al-Farg'oniy

C) Al-Xorazmiy D) Ali Qushchi

42. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida yoshlarga oid qanday tashhabbus bilan chiqqan edi?

A) BMTning Yoshlar bilan ishlash komissiyasini tuzish

B) BMTning Yoshlar salomatligi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish

C) BMTning "Yoshlar kelajagimiz" loyihasini hayotga tatbiq etish

D) BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish

43. Bugungi kunda O'zbekistonda tarix fani bo'yicha akademik darajasiga ega bo'lgan shaxslar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

1) Rustam Sulaymonov; 2) Ahmadali Asqarov; 3) Tursun Salimov; 4) Edvard Rteladze; 5) Anatoliy Sagdullayev; 6) Qahramon Rajabov; 7) Dilorom Yusupova; 8) O'tkir Islomov.

A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 4, 5, 7

C) 2, 4, 6, 8 D) 1, 2, 4, 5

44. «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga ko'ra necha yoshgacha bo'lgan fuqarolar yoshlar deb ataladigan bo'ldi?

A) 28 yosh B) 35 yosh

C) 40 yosh D) 30 yosh

45. O'zbekistonda birinchi bor Badiiy akademiyasi tashkil etilgan yili ...

A) Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondi tashkil etildi.

B) Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi.

C) "O'zbekmuzey" Respublika jamg'arması tuzildi.

D) Samarqand shahrida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida hukumat qarori qabul qilindi.

Akbar ZAMONOV

33-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A	B	B	D	B	B	C	D	A	A	B	C	C	D	B
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
C	C	B	C	A	D	B	A	D	B	B	A	B	A	A
TARIX														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
D	B	D	D	A	B	D	A	C	A	C	D	B	D	D

Ehtirom

Odam borki, odamlarning naqshidir

Xalqimiz o'z ishining fidoyilar qalbini durdonaga qiyoslaydi. Uzoq yillarda davomida erishilgan bebafo boylik — bilim, ilm va tajriba natijalarini kelgusi avlodlarga yetkazib beroladigan insongina el-yurt orasida doimo e'zozlanadi.

Ta'kidlash joizki, maorif va ilm-fan dargohida xizmat qiluvchilar eng xayrli ishlar bilan shug'ullanuvchi kishilardir. Har bir xalqning uni o'zi yoki shogirdlari orqali dunyoga tanitadigan, shon-shuhurani yuksaltiradigan asl farzandlari bo'ladi. Vatan dardi bilan yonib yashaydigan bunday zahmatkash insonor butun umri, bor bilimi, tajribasi, iste'dodi hamda salohiyatini xalq manfaatlari hamda kelajak avlodlar uchun bag'ishlaydi. Ana shunday ulug' xislat-u fazilatlar sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor, benazir ustoz Aziz To'rayevdir.

O'zbekiston madaniyati va san'atida ustoz-shogird an'anasi asrlar davomida muhim omillardan biri bo'lib kelmoqda. Shu ma'noda Aziz To'rayevning rahbarlik tajribasi bugungi yoshlar uchun namuna bo'ladi. U turli davrlarda har xil lavozimlarda faoliyat yuritganida insoniylik, vatanparvarlik, adolatparvarlik, yoshlarga g'amxo'rlik va tashabbuskorlik tamoyillariga qat'iy amal qilgan. Shu sababli domla rahbarlik qilgan har bir sohada rivojlanish uchun to'laqloni zamin yaratilgan va shuning asosida ko'zlangan maqsadga erishilgan. Masalan, u kishi Toshkent davlat madaniyat institutiga rahbarlik qilgan vaqt milliy madaniyatimiz, san'atimiz va qadriyatlarimizni tiklash va uni rivojlantirish ishiga qo'shgan hissasi katta. Chunki aynan o'sha yillarda milliy madaniyatni rivojlantirish eng faol soha-

ga aylanganligiga hammamiz guvohmiz. Ayni paytda milliy madaniyat bilan qurollangan shaxs umuminsoniy madaniyatning ham fidoyisi bo'lishi ma'lum.

Ustozning o'ta madaniyatli inson ekani, kamtarligi barchami lol goldirardi. Domla barcha fanlar qatori ona tili va adabiyotga jiddiy e'tibor berardi. Har xil holatlarga guvoh bo'lganmiz: kimdir soat uchun talashar, kimdir mansab payida bo'lar, yana kimdir "maxsus fan" dan dars berishini iddoa qilardi. Domla bunday gaplarning hammasini tinglasa-da, o'z prinsipiqa sodiq qolgan holda talabalar doimo o'zbek tili va adabiyotini to'liq o'rganishini talab qilardi. Bir gal Ilmiy kengash yig'ilishida yana shunday tortishuvular boshlanganda rektor o'zining qat'iy pozitsiyasini ma'lum qilib: "Har qanday madaniyatning asosini til, adabiyot va tarix tashkil qiladi", deb aytgan edi.

Domlaning ustozlar borasida ham omadagi chopgan inson ekanligi barchamizning havasimizni keltiradi. O'z davrining allomalarini, davlat arbobi, ham millat qahramonlari deb tan olingen Usmon Yusupov va Sharof Rashidovdek kishilarga shogird hisoblangan Aziz To'rayev chin ma'noda ular bilan yelkama-yelka ish-lash jarayonida haqiqiy hayot maktabini o'tadi. Ularning ish tajribalarini o'rgandi. Xalqimizning ardoqlari, jonkuyar farzandlaridan barcha ijobji yislatlarni o'zinga singirdi. Amir Temur bobomiz kabi adolat tamoyilini barcha narsadan yuksak



bildi. Kundalik hayotimizda uchraydigan qat'iyatsizlik, birovning soyasiga salom berish va mahalliychilik kabi illatlarga murosasiz bo'ldi. Soxtakorlik, ayniqsa, birovning haqiga xiyonat qilishdan hazar qildi. Hayotida nimaga erishgan bo'lsa, shunga qanoat qildi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, ustozlari Aziz Oppoqovichga qanday mehr ko'rsatgan bo'lsalar, domla ham shogirdlari ziyodasi bilan mehr ko'rsatdi. O'zidagi bor bilim va tajribalarini ulardan qizg'anmadidi. Hozirgi kungacha ularning har biridan xabardor bo'lib, maslahatlarini ayamat kelishi, ba'zi hollarda chin ma'noda ular haqida qayg'urishi ustozning naqadar saxovatpesha inson ekanligining belgisidir.

Ustoz va u kishining fazilatlari haqida katta asarlar yozish mumkin. Ishonchimiz komilki, unday asarlar ham yoziladi. Shu o'rinda yana bir jihatni alohida e'tirof etish zarurki, shogirdlar uchun "Aziz To'rayevning hayot maktabi" yaratildi.

Ushbu maktab yana ko'p yillar davom etishi muqarrardir.

Atoqli shoirimiz Abdulla Oripovning shunday satrlari bor:

Yaxshilarning mehri unutilmas lekin, Unutilmas ular oldidagi qarz.

Biz shu paytga qadar Aziz To'rayevdan juda ko'p narsalarini o'rgandik: kamtarlik, fidoyilik, qat'iyatilik, kelajakka ishonch bilan qarash, kengfe'lilik, kishidagi iqtidorni anglay olish va h.k. Ayniqsa, oda-miylik, kishi ko'ngluni anglay olish, lozim paytda lozim so'zni aya olish kabi xususiyatlar ham domlaga bevosita daxlidordir. Chunki ustoz har bir kishining oil-aviy ahvoli, turmush tarzini yaxshi bilib, shunga yarasha maslahat berib kelgan. Ayniqsa, boshga biror musibat tushganda doimo ko'ngilni ko'taradigan gaplar aytgan. Yuuqularimizdan quvongan, yo'l qo'yan kamchiliklarni iztirobga tushgan. Eng muhim, domla bizni faqat to'g'ri yo'iga boshlab, ilm-ma'rifat bilan shug'ullanishga da'vat etgan. Gazeta-jurnallarda bosilgan maqolalarimizni, radio-televiedeniyedagi chiqishlarimizni mun-tazam kuzatib borgan.

Ustoz! Aziz boshingiz omon bo'lsin, qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin! Yaratgandan so'raydiganimiz shu:

Sizga tilaklarimiz bir jahon bo'lsin, Boshingiz ostobli osmon bo'lsin. Kunduzning g'aroyib chog' idir ogoshom, Saodat bir-la u nuraqshon bo'lsin.

Ravshan JOMONOV,
Nozim QOSIMOV,
O'zbekiston davlat xoreografiya
akademiyasi professorlari

Zamonamiz qahramoni

Tashabbuskorlik-la tashlangan qadam

Bilimli insonning yon-atrofidagilarga ham ilm ulashishi katta savob sanaladi. Denovning dasht-u dalalarida tug'ilib o'sgan Abdumanno Xolmirzayev ana shunday savobli mashaqqatga bel bog'lagan pedagoglardan biri. U 1992-yili Tojikiston Respublikasidagi Dushanbe davlat pedagogika universitetining fizika fakultetini bitirgan bo'lsa-da, fizika va matematika fanidan tashqari informatikadan ham dars bergen.

A.Xolmirzayev turmandagi 50-maktabda bolalarga saboq berarkan, kompyuter sir-asrorlarini mukammal o'rgatishda davom etdi. Faoliyatining dashtlabki o'n yilliqida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish asosida ko'plab shogirdlar tayyorladi. Natijalar esa ko'ngildagidek bo'ldi: 2000-yilda uning o'quvchilari Samarcand shahrida bo'lib o'tgan "Kompyuter savodxonligi" bo'yicha respublika ko'rik-tanlovida qatnashib, umumjamoia hisobida 1-o'rinni qo'lga kiritishdi. 2000-2003-yillar oraliq'ida esa fan olimpiadiasining viloyat bosqichida faxrlri o'rinalmi qo'ldan berishmadi.

Muallimning bilimi va qat'iyatini barcha e'tirof etar, uzoq-yaqindagi maktablardan

ham to'garak mashg'uloti o'tib savobli ish qilishimi so'rashardi. Mehnatsevar va shijoatli o'qituvchi turli qo'shimcha to'garak mashg'ulotlari tashkil etdi. Denov tumanidagi 1-maktab ja-moasi bilan 2003-yili Toshkent shahrida, 2007-yili esa Toshkent viloyatining Bekobod shahrida bo'lib o'tgan respublika "Yil maktabi" ko'rik-tanlovida qatnashib, jamoaviy 2- va 3-o'rinnlari qo'lga kiritishgan. A.Xolmirzayevning tashabbuskorligi tuman xalq ta'limi bo'limida metodist, AKT bo'yicha mutaxassis, ijob intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassis lavozimlaridagi faoliyatida yanada yaqqlor namoyon bo'ldi. 2012-2015-yillar davomida tuman o'qituvchilarining kom-

pyuter savodxonligini oshirish maqsadida respublikada birinchilardan bo'lib dastur asosida o'quvlar tashkil qilgan. 2019-yili tumanidagi 4-maktabda viloyat miqyosidagi seminarida A.Xolmirzayevning ommalashtirilgan "Hujjalat bilan ishlash va ijob intizomini mustahkamlash hamda kirim qilingan hujjalarga nazorat kartochkalarini yuritish bo'yicha uslubiy tavsivona"si asosida tashkil etilgan ishlar ko'rsatib berildi. Hujjalat bilan ishslashning elektron mexanizmi tajribasi boshqa hududlarda yo'qligi tufayli ish tajribasi viloyat miqyosida ommalashtirildi.

Pedagog o'tgan yillarda davomida tuman umumta'lim muassasalarida ijob intizomini mustahkamlash masalasida 50 dan ortiq



Buni mazkur telegram kanaliga kirib, barcha viloyatlardan soha xodimlarining yozib qoldirgan fikrlari, izohlar va mulohazalaridan ham bilih mumkin. Mehnatning rohati, mashaqqatning rag'batli bo'ladi, albatta. Ustoz Xolmirzayev 2001-yilda "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 10 yil", 2016-yilda "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 25 yil" esdalik nishoni, 2017-yilda "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi. Hozir Surxon Daryo viloyatiga xalq ta'limi boshqarmasida ijob intizomi va murojaatlar bilan ishslashda metodik yordam ko'rsatishga qaratilgan maxsus telegram kanali (https://t.me/ijro_intizomi_uz) ochdi. Bungu kunda respublikaning turli hududlaridan 2500 nafardan ortiq soha xodimlari mazkur kanalga a'zo bo'lishgan va yetkazib berilayotgan materiallardan amaliyotda foydalaniib kelishmoqda.

Yigitli RAJABOV

Kecha va bugun

tutashgan maskan

Insoniyat ma'nnaviy yuksalishiga beshik bo'lgan, kechmishi necha ming yillik tarixga bog'lanadigan, bashariyatning barcha taraqqiyot bosqichlariga guvoh bo'lgan, bag'rida o'tmish, ham bugungi tamaddun jarayonlarini namoyon etuvchi maskanlar mamlakatimizning har bir hududi, shahar va tumanlarida bor.

Toshkent viloyatining Qibray tumanini ham o'ziga xos tarixga ega ana shunday go'shalardan. Chunki tumanning kecha va bugunini o'zida jamlab kelayotgan mo'jaz idora bugun 83 mingga yaqin tuman aholisiga hamda ta'limgiziga oid hujjatlarni bag'rida saqlab kelmoqda. Shu bilan birga kuniga 80 nafarga yaqin turli hayotiy ehtiyoj bilan kelgan aholiga xolis xizmat qilinmoqda.

Butashkilotbarpoetilganigasalkam yarim asr bo'lgan. Unga 1973-yilda



Qibray tuman shaxsiy tarkib hujjatlar davlat arxivni nomi bilan asos solingan.

— Ushbu maskan tuman aholisiga tarixiga oid manbalar, esdaliklar va davr ruhini o'zida mujassam etgan arxiv saqlanayotgani bilan qadrli, — deydi shaxsiy tarkib hujjatlar davlat arxivni rahbari Nigora SALOMOVA.

— Hozirgi vaqtida hukumatimiz tomonidan barcha tarmoqlarda bo'lgani kabi bu sohaga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki arxiv hujjatlarini asrab-avaylash juda muhim vazifadir. Biz ham mana shu aqidaga amal qilib ishlab kelyapmiz. Har yili 9-iyun "Xalqaro arxivlar kuni", 15-iyun esa "Arxiv ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan kun sifatida nishonlab kelinadi. Bu esa jamomiznining o'z kasbiga mehr va ishonchini mustahkamlaydi.

ton Respublikasi Qonuni qabul qilingan kun sifatida nishonlab kelinadi. Bu esa jamomiznining o'z kasbiga mehr va ishonchini mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda Qibray tuman shaxsiy tarkib hujjatlar davlat arxivining fondlari fan, ta'limgiz, madaniyat, sog'iqliqi saqlash va boshqa sohalariga oid hujjatlar bilan boyitilmoqda. Tuman arxivni o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga,



Arxiv hujjatlarini asrab-avaylash juda muhim vazifadir. Biz ham mana shu aqidaga amal qilib ishlab kelyapmiz. Har yili 9-iyun "Xalqaro arxivlar kuni", 15-iyun esa "Arxiv ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan kun sifatida nishonlab kelinadi. Bu esa jamomiznining o'z kasbiga mehr va ishonchini mustahkamlaydi.

shuningdek, "O'zarxiv" agentligining nizom, yo'riqnomasi, qaror hamda farmoyishlari, ko'rsatmalariga, o'z Nizomiga amal qiladi. Xalq xizmatidagi mazkur jamoa o'ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan ado etib kelmoqda.

Dilrabo UMIRZOQOVA



Suratlarda tuman davlat arxivini hayotidan lavhalar.

Toshkent viloyati xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli Ayrim fanlar churur o'rjaniladigan Angren shahridagi davlat ixtisoslashtirilgan matab-internati

IQTIDORLI O'QUVCHILARNI O'QISHGA TAKLIF ETADI!

Maktab-internatga 2021-2022-o'quv yili uchun 7-sinfga xorijiy tillar (ingliz tili) va aniq fanlar (matematika) yo'nalishlariga o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi.

Tanlov DTM (Davlat test markazi) tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati(DIMI)da:

► Dars mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida hamda yuqori malakali pedagog kadrlar tomonidan olib borildi.

► O'quv-tarbiya jarayoni 7-11-sinflar doirasida maxsus o'quvreja va dasturlar asosida tashkil etiladi.

► O'quvchilar yotoqxona va issiq ovqat bilan ta'minlanadi. O'quvchilar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. DIMI direktori nomiga ariza.

2. 086-U shakldagi tibbiy ma'lumotnomasi.

3. 3x4 hajmdagi 6 ta fotosurat.

4. Tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.

Hujjatlar 2021-yil 1-iyundan 15-iyulgacha qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent viloyati, Angren shahri, 48-daha, 1-“b” uy.

Murojaat uchun telefonlar:

(99) 817-24-91, (94) 925-41-89, (94) 366-25-12.

Hujjatlar onlayn tarzida ham qabul qilinadi.

Karabayev Ikrampjan Turayevichning 06.01.01 — Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "Asosiy va takroriy ekinlarni yetishtirishda tupoqqa ekish oldidan ishlod berish usullarini ilmiy asoslash (sug'oriladigan tipik bo'z tupoqlar sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiysi, urug'chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashining 2021-yil 16-iyun kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumanı, Botanika MFY, PSUYAITI. Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Baimanova Ruslan Kenesbayevichning 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Past bosimli to'g'onlarning yuqori befidagi qayta shakllanish qonuniyatlarini va hisoblash usullarini ilmiy asoslash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mechanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengashining 2021-yil 11-iyun kuni soat 16:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-38-79; e-mail: admin@tiaame.uz

Ayaqulov Nurbek Abdug'appor o'g'lining 10.00.06 — Qiyyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida sport terminlarining qiyyosiy-tipologik tadqiqi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahor tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashining 2021-yil 18-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a” uy. Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2017-yil iyundagi qaroriga asosan Sattarov Qahhor Ne'matjonovichga berilgan B № 903251 raqamli DIPLOM va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.



"Chinobod-plaza"ga yo'llanma — yangi imtiyoz

Inson qaysi sohada faoliyat yuritmasin, uning mehnati munosib rag'batlantirilishi lozim.

Shunda ishning unumi va natijasi bo'laveradi. Zotan, o'qituvchi va murabbiylarga ham qator imtiyozi yaratilib kelinmoqda.

Ayni kunlarda mehnat ta'iliiga chiqayotgan pedagoglarning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Poytaxtimizdagi 110-maktabda o'tkazilgan tadbir ana shu maqsadga qaratildi. Ta'kidlandiki, Toshkent shahri bo'yicha joriy yilda 261 nafar xodimlarni bepul sog'gomlashtirilishi rejalashtirilgan bo'lib, 2021-yil yanvar oyida 22 nafar xalq ta'limi xodimlari yangi ochilgan, har taraflama zamonaviy jihozlangan "Chinobod-plaza" sanatoriysida bepul davolandi.

— Yanvar-may oylarida 57 nafar tarmoq xodimlari O'zbekiston

kasaba uyushmalari federatsiyasi tasarrufidagi turli sanatoriylarda bepul davolani, dam olishlari tashkil etildi, — deydi O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining Toshkent shahar bo'yicha mas'ul taskhilotchisi Abduxalil Rahmonov. — Iyun-avgust oylarida esa 120 nafar umumta'llim muassasalarini reytingida birinchi beshta o'rinnlarni egalagan maktablardan ikki nafardan o'qituvchilarga bepul yo'llanma ajratilishi belgilab qo'yildi. Pedagoglarni mana shunday imtiyozlardan foydalananishga da'vat etib, faol o'qituvchilar va tanlov g'olib-

larini munosib rag'batlantirishga harakat qilyapmiz. Masalan, "Kasaba uyushmalari laureati" mukofoti uchun hamda "Ustozlar — kasaba uyushmalari e'zozida" kabi tanlov ham o'tkazildi, qolaversa, mehnat muhofazasiga bag'ishlangan turli tanlovlardan ham bor.

Tadbir doirasida iyun oyida sanatoriylarda dam olish imtiyozini qo'liga kiritgan 40 nafar faol pedagoglarga bepul yo'llanma berildi. Ulardan Gulnoza Mamedova, Alfiya Sharofiddinova, Nigora Turopova, Lobar Umarbekova, Gulshan Karimova, Nilufar Otabekova, Jumagul Shodiyeva, Mavluda Badriddinova, Sanoat Abdurasulova o'z minnatdorchiligini bildirishdi.

Noila XO'JAYEVA

B.RIZOQULOV olgan suratlari.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA 2020-2021-O'QUV YILI YAKUNLANGANI, O'QUVCHILARNING YOZGI TA'TILGA CHIQISHI MUNOSABATI BILAN TOSHKENT VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASINING OTA-ONALARGA MUROJAATI

ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI OTA-ONALAR!

2020-2021-o'quv yili muvaffaqiyatli yakunlanib, bir yil davomida ta'litarbiya olgan o'quvchi-farzandlarimizni yozgi ta'tilga kuzatdik. Ayni vaqtida ko'plab o'quvchilarimiz imtihon topshirish jarayonlarida ishtiroy etmoq-dalar.

Yoz kunlari havo harorating ko'tarilishi bolalarning suv havzalarida cho'milish istagini oshiradi. Aynan ta'til kunlari suvda cho'milish xavfsizligi qoidalariga rioya etmaslik turli ko'ngil-siz holatlarga sabab bo'ladi. Ko'pincha

suzishni bilmaslik, suzish tajribasining yo'qligi va o'zining jismoniy imkoniyatini inobatga olmasdan qirg'odan uzoqlashish yoxud taqilangan suv havzalarida cho'milish hamda ota-onalarning farzandlarini e'tiborsiz qoldirishi suvda cho'kish bilan bog'liq mudhish holatlarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, voyaga yetmagan o'quvchi-yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilik va huquqburzaliklar, yo'l-transport hodisalari va boshqa salbiy holatlар aynan yozgi ta'til davrida ko'payishi yillar davomida kuzatib kelinmoqda. Bunday salbiy holatlarga

ko'pchilik o'quvchilarning ta'til davrida ko'chada bemaqsad va nazoratsiz yurishlari sabab bo'immoqda.

Hurmatali ota-onalar, shularni hisobga olib, ko'zimizning oq-u qorasini, sizning va davlatimizning umidi va kelajagi bo'lgan farzandlarimiz bilan shunga o'xshash salbiy holatlari sodir bo'lmashligi uchun farzandingizga e'tiborli bo'lishingizni, issiq kunlarda ko'chada nazoratsiz yurmasliklarini, tezqor suv havzalarida cho'milmasliklarini, ruxsat etilgan suv havzalariga birga borishingiz, ko'chada harakatlanayotganda yo'q qoidalari ga to'liq rioya etilishimi ta'minlashingiz,

ayniqsa, soat tungi 22:00 dan so'ng farzandlaringizning bemaqsad ko'chada yurishlarini oldini olishingiz talab etiladi.

Shu bilan birga yozgi ta'til vaqtida Toshkent viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi 596 ta umumta'llim muassasalarida 2021-yil 15-iyundan boshlab faoliyati rejalashtirilayotgan "Sog'gomlashtirish maydonchalari"-da fan, sport va 5 ta umum tashhabus doirasidagi to'garaklarga jalb qilish orqali bolangizning ta'til davrini mazmunli va samarali tashkil etishda o'z hissangizni qo'shishingizni so'raymiz.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4708. Tiraj 9877. Hajmi 4 bosma tabod. Ofset usulida bositgan, qo'qoz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonasi — (71) 233-50-55; kotibiyat — (71) 233-99-15; reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsatli bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov. Navbatchi muharrir: Dilafro'z Abdurajabova. Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6